

МАКТАBGACHA TA'LIM TASHKILOTIDA TA'LIM JARAYONINI TASHKIL ETISH

Surxandaryo viloyati Sariosiyo tumani

22-sonli MTT direktor ħrinbosari

Rahmatova Sitara Shuhrat qizi

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimida ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishning huquqiy, pedagogik, metodik, axborot-texnologik va innovatsion asoslari yoritilgan. Shuningdek, zamonaviy yondashuvlar, davlat dasturlari va kadrlar bilan ta'minlash masalalari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lim, tarbiya, metodika, davlat dasturi, "Ilk qadam", innovatsiya, pedagog, bola rivojlanishi.

Maktabgacha yosh – inson hayotidagi eng muhim va poydevor davr hisoblanadi. Aynan shu bosqichda bola tafakkuri, shaxsiyati va ijtimoiy munosabatlari shakllanadi. Shu sababli, bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini tubdan isloh qilish, ta'lim va tarbiya jarayonini zamon talablari asosida tashkil etish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biridir.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim tarbiya jarayonlarini tashkil etishda yangicha yondashuvlar asosidagi texnologiyalar tobora rivojlanib, takomillashib bormoqda. Bolaning ilk maktabgacha yosh davri, shaxs sifatida shakllanishning muhim davri hisoblanadi. Shunday ekan maktabgacha ta'lim tashkilotining rahbaridan tortib posbonigacha yuksak mas'uliyat, ijodkorlik, bolajonlik talab qilinadi. Takomillashtirilgan "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi asosida maktabgacha ta'lim mazmunini takomillashtirish, bolalarni o'sishi va rivojlanishida hamda ta'lim jarayonini mazmunli tashkil etishda tashkilotda sog'lom psixologik muhitni yuzaga keltirish zarur. Maktabgacha ta'lim mazmunini takomillashtirish umumiy holatda keng ma'noli tushuncha bo'lib, uni samarali amalga oshirish maktabgacha ta'lim tashkilotining binosini holati, tashkilotning har bir jamoasi jumladan tarbiyachi-pedagoglar, tarbiyalanuvchilar, shunindek jamoa, ota-onalar hamda

tarbiyalanuvchilarning takomillashtirilgan “Ilk qadam” o‘quv dasturi asosida bilim, ko‘nikma va malakalarini oshirib borishda pedagogik-psixologik, metodik, bolalar, badiiy adabiyotlar soni va sifati, tashkilotni adabiyot bilan boyitib borishda ota-onalar va jamoatchilikning jalb qilinishi boshqa shu kabi omillarga bog‘liqdir. O‘zbekiston respublikasida maktabgacha ta’lim tizimida ta’lim va tarbiya jarayonini tashkil etishda quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

1. Huquqiy-me’yoriy asoslar - O‘zbekiston Respublikasida maktabgacha ta’lim tizimi bir qator muhim qonuniy hujjatlarga tayanadi.

Jumladan:

- “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun (yangi tahrir),
- “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi Qonun (2019),
- Davlat maktabgacha ta’lim standarti (DMTS),
- Prezident farmon va qarorlari,
- Vazirlar Mahkamasining tegishli qarorlari.

2. Pedagogik va metodik asoslar - Maktabgacha ta’limda ta’lim-tarbiya jarayoni bolalarning yosh xususiyatlari, qiziqishlari va rivojlanish darajalariga mos holda tashkil etiladi. Asosiy metodik vosita – “Ilk qadam” o‘quv dasturi bo‘lib, u quyidagi yo‘nalishlarni o‘z ichiga oladi:

- Nutq va aloqa,
- Jismoniy rivojlanish,
- Ijtimoiy-emotsional rivojlanish,
- Kognitiv rivojlanish (matematika, atrof-muhit),
- Estetik tarbiya (musiqqa, san’at),
- Mustaqil faoliyat,
- O‘yin faoliyati.

3. Axborot-texnologik yondashuvlar - Zamonaviy maktabgacha ta’limda AKTdan keng foydalanilmoqda:

- Raqamli darslar,
- Interaktiv taqdimotlar,

- “E-MTT” tizimi orqali hujjat aylanishi va monitoring,
- Bolalar uchun moslashtirilgan o‘quv dasturlari va ilovalar.

4. Tarbiyaviy-ma’naviy asoslar- Bolalarga milliy qadriyatlar asosida tarbiya berish – ta’limning ajralmas qismidir. Tarbiyaviy ishlar quyidagilarga qaratiladi:

- Ota-onaga hurmat,
- Yaxshi muomala,
- Vatanni sevishtirish,
- Halollik, mehnatsevarlik.

5. Innovatsion yondashuvlar va xorijiy tajriba - O‘zbekiston maktabgacha ta’lim tizimida Montessori, Reggio Emilia, STEAM, sensorli o‘yinlar, logopedik xizmatlar kabi innovatsion yondashuvlar joriy qilinmoqda. Bu metodlar bolaning mustaqil fikrlashi, muammoli vaziyatlarni hal etishi va ijodkorlik ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

6. Kadrlar va moddiy-texnik baza-Yurtimizda maktabgacha ta’lim tizimi doimiy ravishda yangilanmoqda:

- Tarbiyachilar va yordamchi xodimlar muntazam malaka oshirib boradi,
- Har bir guruh didaktik materiallar, o‘yinchoqlar, audio-vizual vositalar bilan jihozlanadi,
- Rivojlantiruvchi muhit yaratish, bolalarning xavfsizligini ta’minlash masalalari ham dolzarb bo‘lib qolmoqda.

Yosh avlodni yuksak g‘oyaviylik ruhida tarbiyalash ularning ongiga xalq, millat, yurt, jamiyat manfaatlaridan yuqoriroq manfaat bo‘lishi mumkin emasligini singdirishi, ularni Vatanga, xalqqa muhabbat ruhida va sadoqatli qilib tarbiyalash demakdir. Bu sohada mustaqil respublikamiz maktabgacha va maktab ta’lim tizimi xodimlarining asosiy vazifasi erkin, ijodkor, mustaqil fikrlash qobiliyatiga ega, yetuk mutaxassis komil shaxsni tarbiyalashdan iboratdir. Maktabgacha ta’limdan tashqarida olib boriladigan tarbiyaviy ishlarning barchasi ijtimoiy tarbiyaning maqsadini ro‘yobga chiqarishga yo‘naltirilishi zarur. Tarbiyachilar jamoasi va har bir pedagog - tarbiyachi tarbiyaning maqsadi har tomonlama kamol topgan mukammal inson

shaxsini tarbiyalashdan iborat bo'lishi lozim. Ana shunda mazkur tamoyil o'z vazifasini bajargan bo'ladi.

Tarbiyalanuvchi shaxsini hurmat qilish – tarbiyalanuvchilarni ijtimoiy tarbiyalashning muhim tamoyillaridan biri ularning shaxsini hurmat qilishdir. Bu tamoyil insonparvarlik munosabatidan kelib chiqadi. Tarbiyalanuvchi shaxsini hurmat qilish, ularga mehr-muhabbat ko'rsatish va ularga ishonish shart. Tajribalarning ko'rsatishiga, qayerdagi tarbiyalanuvchilarga hurmat, muhabbat, ishonch bo'lsagina shu yerda tarbiyaning ta'siri samarali bo'ladi. Bolalarga hurmat va muhabbat ular kuchiga kuch qo'shadi o'qituvchiga nisbatan hurmatni uyg'otadi.

Tarbiyada tarbiyalanuvchining yosh va alohida xususiyatlarini hisobga olish - tarbiyaning mazmuni, shakl va metodlari bolalarning yoshi va saviyasiga qarab turli sinflarda turlicha bo'ladi. Bolalar maktabgacha ta'limda rivojlanishining turli davrlarini ilk bolalik, go'daklik, erta yosh darvi bosqichlarini bosib o'tadilar. Shu davrlar ichida bolaning axloqiy turg'unligi rivojlanadi, xulqi va ongi o'rtasidagi uyg'unlik vujudga keladi. Tarbiya berishda har bir tarbiyalanuvchining shaxsiy xususiyatlarini ham hisobga olish katta ahamiyatga ega. Bolalarning jismoniy va ma'naviy o'sishida bir qadar umumiylik bor, biroq bolalarning tavsif-xislatlari, qobiliyat va mayllari, qiziqishlari, irodaviy sifatlari har xil bo'ladi. Bu farqlar ularning xulqida, o'qishi va mehnatida aks etadi. Bir tarbiyalanuvchiga nisbatan foydali metodni boshqa tarbiyalanuvchiga nisbatan qo'llaganda natijasiz bo'lib, chiqishi mumkin. Shuning uchun har bir tarbiyalanuvchi xususiyatini o'rganish maqsadga muvofiqdir. Jamoada va jamoa yordamida tarbiyalash - tarbiya jarayoni tarbiyalanuvchilarning jamoa bo'lib birlashishlari, ularda manfaatdorlik birligi, o'zaro yordam tuyg'usini o'stirish xizmat qilishi lozim. Tuyg'u tashkil etilgan jamoa a'zolarining qobiliyat va istedodini rivojlantirish uchun keng yo'l ochadi. Jamoada bola har tomonlama rivojlanishi uchun keng imkoniyatga ega bo'ladi. Tarbiyalanuvchilar ahil jamoa bo'lib uyushganlaridagina tarbiyaviy ishlarni amalga oshirish ancha yengil va muvaffaqiyatli bo'ladi. Yaxshi uyushgan jamoada jamoa fikri katta tarbiyaviy kuchga ega bo'ladi, har bir shaxsga ta'sir etadi. O'z manfaatini jamiyat manfaati bilan qo'shib olib borish,

o‘zaro yordam kabi fazilatlar avvalo, jamoada shakllanadi. Tarbiyachihamma vaqt tarbiyalanuvchilar jamoasiga tayanmoo‘i, ularni jamoa bo‘lib turli ishlarni bajarishga odatlantirib, jamoada yashash va ishlashga o‘rgatib borishi lozim. Tarbiyada tarbiyalanuvchi xulqidagi ijobiy sifatlarga tayanib, salbiy xislatlarini yo‘qotib borishga e‘tibor qaratish lozim. Mahoratli pedagoglar o‘z tarbiyalanuvchilarining shaxsiy fazilatlarini yaxshi biladilar. Tarbiya maqsadini amalga oshirish uchun bola xulqidagi ijobiy sifatlarga suyanib ish ko‘radilar. Boladagi ijobiy sifatlarga tayanish uning salbiy sifatlarini yo‘qotish, yomon odatlardan qaytarishning eng yaxshi vositasidir. Tarbiya muvaffaqiyati mazkur masalaning to‘g‘ri hal etilishiga ko‘p jihatdan bog‘liq.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak O‘zbekistonda maktabgacha ta’lim tizimining tub isloh qilinishi bolalarning har tomonlama rivojlanishiga xizmat qilmoqda. Ta’lim va tarbiya jarayonining huquqiy, metodik, axboriy va innovatsion asoslarda tashkil etilishi bu tizim samaradorligini oshirmoqda. Kelgusida bu yo‘nalishda xalqaro tajribalar asosida integratsion yondashuvlar joriy etilishi kutilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, 2020-yil.
2. O‘zbekiston Respublikasi “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi Qonuni, 2019-yil.
3. Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi. “Ilk qadam” o‘quv dasturi. Toshkent, 2022.
4. O‘zbekiston Respublikasi Davlat maktabgacha ta’lim standarti (DMTS), 2021-yil.
5. Xalqaro tajriba asosida ishlab chiqilgan STEAM va Montessori metodikalari bo‘yicha uslubiy qo‘llanmalar.